

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024


**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalari kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO‘K: 378:37.013.78:316.774

**OLIV TA'LIM TALABALARIDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK AHAMIYATI****ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ У
СТУДЕНТОВ ВУЗОВ****PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF FORMING MEDIA LITERACY IN HIGHER
EDUCATION STUDENTS****Maxamadjonova Mashxura Maxamadjonovna** 
CAMU xalqaro tibbiyot universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada mediata'lim, mediakompetentlik va mediasavodxonlik tushunchalari, ularning farqli jihatlari, ushbu tushunchalarning tadqiqiga doir fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, mediasavodxonlikning muhim belgilari, ularning vazifa va darajalari ham o'rganilgan hamda tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируются понятия медиаобразование, медиакompetentность и медиаграмотность, их различия, мнения по исследованию этих понятий. Также были изучены и проанализированы важные особенности медиаграмотности, их задачи и уровни.

Abstract

In this article, the concepts of media education, media competence and media literacy, their differences, opinions on the research of these concepts are analyzed. Important features of media literacy, their tasks and levels were also studied and analyzed.

Kalit so'zlar: matn, mediamatn, kontekst, savodxonlik, ommaviy kommunikatsiya, mediaviylik, ommaviylik, integrativiylik

Ключевые слова: текст, медиатекст, контекст, грамотность, массовая коммуникация, медианность, массовость, интегративный

Key words: text, media text, context, literacy, mass communication, medianess, mass, integrative

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlikka ega bo'lish zarurati yuzaga keldi. Avvalo, mediasavodxonlikning o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollariga javob topish lozim. Chunki so'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishdan iborat bo'lgan.

Media literacy (mediasavodxonligi) tushunchasi ajralib turadi va u media voqeligini tahlil va sintez qilish, mediamatndan foydalanish va uni tushunish, mediamadaniyat asoslarini bilishni, ya'ni mediata'lim natijasini nazarda tutadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mediata'lim foliyatini amalga oshirishga pedagoglarni tayyorlash jarayoni juda serqirra: u nazariy materiallarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlarda mediamadaniyat asoslarini o'rganish asosida ijodiy va didaktik o'yin topshiriqlarini samarali va faol qo'llashni nazarda tutadi. Ijodiy topshiriqlarni bajarish natijasida pedagoglar turli yosh toifalariga doir mediata'limdan mediaklub,

kino, to'garak, fakultativlardan olgan bilimlarini oliy ta'lim muassasasi amaliyotida qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Mediakompetentlikning amaliy-faoliyatli ko'rsatkichlari "mediamatnlarni yaratish va tarqatish yuzasidan mustaqil tanlov amaliy ko'nikmalarini (jumladan-shaxsan va mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan) har xil tur va janrlar, media sohasidagi faol mustaqil o'qish ko'nikmalarini" tashkil qiladi [1].

Kreativ ko'rsatkichlar media bilan bog'liq "turli faoliyat shakllarida yorqin ifodalangan ijodiy boshlanish darajasini (persektiv, o'yinli, badiiy, tadqiqotchilik va b.), namoyon qiladi[2].

Mediata'lim mashg'ulotlari jarayonida pedagoglarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga tadbiiq qilishlarida ularning talabalar bilan o'tkazadigan amaliy mashg'ulotlarida o'ta muhim tarkibiy qism vazifasini o'taydi.

O'qituvchilar bilan ishlashda muhim jihat mediata'lim maqsadlariga erishishda eng asosiy yordamchi hisoblanadigan o'qituvchi va talaba ish usuli sifatida ko'riladigan mediata'lim metodlarini o'rganishga qaratiladi [90].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur jarayonda mediamadaniyat asarlarini o'rganishga asoslangan bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirish quyidagi darajada kechadi:

- Bilim va faoliyat usullarini qo'llashda media materialidan foydalanish;
- Mediamatnlarni ongli qabul qilish va esda saqlab qolish;
- Media va mediamadaniyat to'g'risidagi bilimlarni ijodiy rivojlantirish[3].

Media uzluksiz ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi.

Bugungi axborot muhitini tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilyotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrardir.

Global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, internet yoshlar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohaslariga keng miqyosda joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish, chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg'unchilik ta'sirlaridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda. Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi:

-yoshlar va yoshlarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish;

-media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish;

-internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish;

-mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash[4]

XULOSA

Bu borada, Germaniyada ushbu masalalar yoshlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun, inson qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risidagi hamda teleradioeshittirish va telemediasizmatlar sohasida yoshlarni muhofaza qilish to'g'risidagi davlat shartnomalari orqali tartibga solinadi. Nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BMT Konvensiyasini, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida" Germaniya, "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida" Litva va "Yoshlarni sog'lig'i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi

PEDAGOGIKA

axborotdan himoyalash to'g'risida" Rossiya qonunlarini tilga olish mumkin. Mediasavodxonlik haqida so'z ketganda ekspertlar shuni qayd etadiki, ko'nikmalarning an'anaviy to'plami kengaymoqda... katta ma'lumotlardan xabardorlik, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, internetda qo'llaniladigan algoritmlarni bilish, shuningdek, mediaga kirishish va undan chiqish o'rtasidagi muvozanatga rioya qila olish yangi mediasavodxonlik komponentlari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Федоров А.В. Модель развития медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза на занятиях медиаобразовательного цикла .Иновации в образовании. 2007.
2. Хожимухаммедова D.R. O'qituvchilarning kasbiy kompistentligi. Xalq ta'limi. IMJ. – T.: 2011
3. Кузьмин Е. И., Паршакова А. В. Медиа и информационная грамотность в обществах знания / Сост.-М.: МЦБС, 2013
4. Махамаджоновна М.М. Современные подходы в формировании межкультурных компетенций с использованием медиатекстов.NamDU-ilmiy axborotnomasi ISSN:2181-0427-2020.